



## **Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation**

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd January, 2026

Website: <https://econferencia.com>

### **SOYA O'SIMLIGINING MORFO-BIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA MAHALLIYLASHTIRILGAN YANGI NAVLAR**

Abdullayev Lazizbek Bannobjon o'g'li  
Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi  
xalqaro instituti talabasi

#### **Annotatsiya:**

Soya (*Glycine max*) dunyo qishloq xo'jaligida oqsil va moy manbai sifatida strategik ahamiyatga ega. Maqolada o'simlikning biologik tuzilishi va 2024–2025-yillarda O'zbekiston iqlimiga moslashtirilgan istiqbolli navlar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** dukkakdoshlar oilasi, oziq-ovqat, sanoat, geobotanika, dukkakli, soya moyi, bir yillik, o'simlik.

#### **Аннотация:**

Соя (*Glycine max*) имеет стратегическое значение в мировом сельском хозяйстве как источник белка и масла. В данной статье анализируется биологическая структура растения и перспективные сорта, адаптированные к климату Узбекистана в 2024–2025 годах.

**Ключевые слова:** семейство бобовых, пищевая промышленность, геоботаника, бобовые, соевое масло, однолетнее растение.

#### **Abstract:**

Soybean (*Glycine max*) is of strategic importance in global agriculture as a source of protein and oil. This article analyzes the plant's biological structure and promising varieties adapted to Uzbekistan's climate in 2024–2025.



## Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd January, 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

**Keywords:** legume family, food industry, geobotany, legumes, soybean oil, annual plant.

Dunyo hamjamiyatining bugungi kundagi iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan taraqqiy etib borayotgan bir davrda, har bir davlat uchun oziq-ovqatmuammosini hal qilish uning iqtisodiyoti oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki oziq-ovqat hayotiy faoliyat uchun zarur bo'lgan elementlar orasida eng muhim va muqobil variantga ega bo'lmagan vositalardan biri hisoblanib, turli sabablarga ko'ra oziq-ovqat yetishmovchiligining paydo bo'lishi ko'plab tiklab bo'lmas ta'sirlarga olib kelishi mumkin. Oziqlanish va Iqtisodiy o'sishga bagishlangan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, oqsil iste'molining bir foizga ko'tarilishi uzoq muddat davomida yalpi ichki mahsulotning (YAIM)ni 0,49 foizga oshishiga olib keladi. YAIMning har yili bir foizga ortishi 72 yil davomida aholi daromadini ikki baravar oshishi, ikki foizga o'sishi esa 36 yilda ikki baravar yuksalishiga olib keladi

Soya – dukkakdoshlarga mansub bir yillik o'tsimon o'simliklar turkumi, dukkakli don va moyli ekin. Vatani – Xitoy. Dastlab O'zbekistonda 1975-yildan ekilgan. Poyasi dag'al, tik o'sadi, ammo yotib qoladigan navlari ham bor. Bo'yi 15 sm dan 2 m gacha, shoxlanadi, yon shoxlari 2-8 ta. Bargi sertuk, bandining uzunligi 8-2 sm. Guli mayda, oq yoki pushti, shingil gulto'plamga yig'ilgan. Mevasi dukkak, sariq, qora, qo'ng'ir, sertuk. Har bir dukkagida 2-6 ta don bor, tarkibida 24-45% oqsil, 13-37% yog', 20-32% uglevodlar, vitaminlar bor.

Soya issiqsevar va namsevar o'simlik, yorug'sevar qisqa kun o'simligi. 21-23°C da yaxshi rivojlanadi. Urug'i 6-10°C da unib chiqadi. Soya o'zidan changlanadi. Gullash davri 15-55 kun davom etadi. Vegetatsiya davrida har 10-12 kunda



## Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd January, 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

sugʻorish kerak. Donidan olein-linol guruhiga mansub moy, oqsilga boy soya unib olinadi. Doni, pishib yetilmagan (dumbul) dukkagi ovqatga ishlatiladi. Soya unidan kolbasa mahsulotlari, sut, tvorog, qandolat, mahsulotlari tayyorlashda foydalaniladi. Somoni, toʻponi, koʻk poyasi, pichani, silosi oziqa sifatida chorva mollariga beriladi.

Oʻzbekistonda hozirgi kunda 65 dan ortiq soya navlari mavjud boʻlib, ularning bir nechtasi respublika iqlimiga toʻliq moslashtirilgan.

- "Oltin toj": Don dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan yaratilgan boʻlib, Davlat reyestriga kiritilgan serhosil navlardan biri hisoblanadi.

- "Oʻzbekiston-2" va "Doʻstlik": Oʻrtapishar navlar boʻlib, gektaridan 28.4–30.4 sentner urugʻ hosili beradi.

- "Oʻzbekiston-6": Kechpishar nav boʻlib, asosan asosiy ekin sifatida ekiladi va 31.2 s/ga gacha hosildorlik koʻrsatadi.

"Oyjamol": Soʻnggi yillarda keng ommalashgan, takroriy ekin sifatida ham yuqori natija berayotgan navlar sirasiga kiradi.

Nav originori: Don dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot institutining seleksion navi.

Nav mualliflari: Mannapova M, Siddikov R., Mirzaxmedov B.

Oʻsimlik boʻyi oʻrtacha 70 sm. Doni oʻrtacha yiriklikda, silliq, sariq. 1000 dona urugʻ vazni oʻrtacha 155,0 g. Vegetatsiya davri 94 kun. Yotib qolishga va toʻkilishga chidamliligi 5,0 ball.

Oʻrtacha hosildorlik: 28,3 s/ga. Sinov yillarida qishloq xoʻjalik kasalliklari va hasharotlari bilan zararlanmadi.

2010-yildan Respublika boʻyicha Davlat reyestriga kiritilgan. Mamlakatimiz hududida barcha viloyatlarda ekish uchun tavsiya qilingan.

Soya agrotexnik ahamiyatga egadir. Soya ekini ildizlarida tuganak bakteriyalar (*Rhizobium Japonica*) mavjud boʻlib, azot oʻzlashtiradigan oʻsimliklar qatoriga



## **Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation**

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd January, 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

kiradi. Dukkakli ekin sifatida soya tuproqni azot bilan boyitadi, ildizlarida bir yilda 1 gektar maydonda o‘rtacha 70-100 kg azot to‘planadi. Mazkur yo‘l bilan hosil bo‘lgan biologik azot ekologik toza bo‘lib, u tuproqqa, sizot suvlariga, iste‘molchilarga zaharli ta‘sir ko‘rsatmaydi, shuningdek u sun‘iy azotli o‘g‘itlar singari mevalarda to‘planmaydi.

2025-yil O‘zbekistonda "Atrof-muhitni asrash va „yashil“ iqtisodiyot yili" deb e‘lon qilinganligi munosabati bilan soya ekishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Soya tuproqni tabiiy azot bilan boyitishi tufayli "yashil iqtisodiyot" prinsiplariga to‘liq javob beradi va g‘alla hamda paxta uchun eng yaxshi o‘tmishdosh ekin hisoblanadi.

Soyaning yangi navlarini joriy etish orqali ham chorvachilikni yuqori oqsilli yem bilan ta‘minlash, ham tuproq unumdorligini tabiiy yo‘l bilan tiklash imkoniyati kengaymoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M. K. Xodjamova, H. X. Matniyazova, D. N. Karshibayeva, M. M. Salohiddinova, I. Dj. Kurbanbayev, and S. M. Nabiyev. "YERYONG‘OQ O‘SIMLIGINING MORFO BIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI" Academic research in educational sciences, vol. 3, no. 6, 2022, pp. 421-427.
2. H. X. Matniyazova, O‘. X. Yuldashov, D.N.Karshibayeva, M. M. Salohiddinova, S. M. Nabiyev, G. Dj. Mavlonova, and D. Z. Sobirova. "MAHALLIY SOYA NAVLARINING MORFOLOGIK BELGILARIGA FITOPATOGEN MIKROMITSETLAR TASIRI" Academic research in educational sciences, vol. 4, no. 5, 2023, pp. 99-106.